



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмурадовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSİYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODELİ ASOSIDA HISOBGA OLISH METODİKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODELİ VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	
DAVLAT BUDJETIDA SOLIQ TUSHUMLARI O'ZGARISHINING EKONOMETRIK TADQIQOTI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	288
Suvanova Muxlisa Umar qizi	
ENERGETIKA RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	292
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
ENERGETIKA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUD IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	297
Sadullayev Axmadjon Ikrom o'g'li	



TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRINI BOJXONA NAZORATI MAQSADLARIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	303
Kilichov Nazar Bafojevich	
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	310
Botirov Lazizbek Botirovich	
KATTA MA'LUMOTLAR ASOSIDA TURISTIK XIZMATLARGA BO'LGAN TALABNI PROGNOZLASHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	314
Temirov Elyor Iskandarovich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI SAMARADORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI.....	322
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA AJRATILAYOTGAN BANK KREDITLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	328
Alijonov Ilyosbek Alijonovich	
THE ECONOMIC CHARACTERISTICS OF NON-PERFORMING LOANS AND THEIR IMPLICATIONS FOR BANK OPERATIONAL EFFICIENCY	334
Rustamov Jonibek Ravshanbek o'g'li	
IQTISODIY TARMOQLAR RIVOJIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION KREDITLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	341
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
TASHQI SAVDONI BOZOR NAZARIYASI ASOSIDA MINTAQANING BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	346
Dilnoza Ochilova Ismoil qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SINERGIK SAMARALARINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	351
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
LOGISTIK TERMINALLAR FAOLIYATINI EKSPERT BAHOLASH USULI ASOSIDA TADQIQ ETISH.....	357
Zohidov Muhriddin G'ofurjon o'g'li	
Jumayev Sherzod Bahrom o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA XIZMATLAR SOHASINING IJTIMOIIQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA HUDUDIIY TAFOVUTLAR DARAJASI.....	367
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Sherzodova Diyora Sherzod qizi	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIQTISODIY OMILLARNING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI STATISTIK BAHOLASH	373
Maxmatqulova Hikoyat G'iyosiddin qizi	
DIGITAL NOMADS AND THE CHANGING FACE OF GLOBAL TOURISM	379
Sirojiddinova Shahrizoda Davronovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	385
Sharipov Tohir Miraximovich	
URGANCH JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARINING MURAKKABLIK DARAJASINI BAHOLASH USLUBI	390
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINI KORXONANI HAYOTIIY AYLANISH BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBNING MOHIYATI	395
Muydinov Erkin Djamaldinovich	



HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHDA KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI	399
Raximov Jo'rabek Raximovich	
MINTAQQA IQTISODIYOTINI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	405
Mahmatrayimov Shahzod	
HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARIDA RAHBAR KADRLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	410
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA KO'P VEKTORLILIK: XITOIY, ROSSIYA VA G'ARB O'RTASIDA MUVOZANATNI TA'MINLASH STRATEGIYASI	419
Omonova Maxliyo	
Haydarova Malika	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	423
Djalalova Durdona Dilshodbekovna	
QURILISHDAGI IQTISODIY TEJAMKORLIK ASOSIDA LEGO G'ISHT MATERIALLARINI TAHLIL QILISH	427
Askarov Xasanjon	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA YER VA SUV RESURLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISH TAJRIBASI	432
Matkarimov Mansur	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	439
Madrakhimov Kakhramon	
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE GLOBAL LABOR MARKET.....	445
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Xamrayeva Sevinch Ikromjonovna	
ROBOTLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI: ISH O'RINLARINING QISQARISHI YOKI YANGI KASBLAR TRANSFORMATSIYASI.....	451
Usmonov Farrux Furqatovich	
Azimov Mirsaid Salimovich	
TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA NOTARIF CHORALARNI QO'LLASHDA XAVFNI BOSHQARISH TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	456
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	
EXAMINING LEADERSHIP DIFFERENCES BETWEEN FEMALE AND MALE MANAGERS.....	460
Dilafruz Kuchkorova	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI MHXS (MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTI) TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	468
Abdimurodov Baxrom Ochilovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	473
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi	
HUDUDLARDA TURIZMNI IMMERSIV TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	477
Kasimova Yulduz Baxtiyorovna	
DAVLAT TIBBIY SUG'URTASIDA STRATEGIK XARID: PASSIV MOLIYALASHTIRISHDAN STRATEGIK XARIDGA O'TISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	485
Kilichev Fazliddin Usmanovich	
ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА.....	493
Шадманова Мадинахон Омонулла кизи	



ОТ УПРАВЛЕНИЯ МЕРОПРИЯТИЯМИ К УПРАВЛЕНИЮ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ: DATA-INFORMED МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕАУДИТОРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УНИВЕРСИТЕТАХ УЗБЕКИСТАНА.....	501
Сабилов Алишер Саибович	
ИЗУЧЕНИЕ БЮДЖЕТИРОВАНИЯ И КОНТРОЛЯ В ПРОЦЕССЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА В ООО «SATURN METAL»	509
Мусаева Шоира Азимовна	
О'ZBEKISTON IQLIM SHAROITIDA DONADOR O'G'ITLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	518
Boltayev Baxriddin	
О'ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY TURIZM TALABLARIGA MOS TURISTIK RESURSLAR SALOHİYATI	525
Suyunov Alijon	
BOSHQARUV MEKANIZMLARING RAQOBAT STRATEGIYASI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI	530
Islomov Shuhrat Ma'rufjonovich	
Nabiyeva Zumrad Zafarovna	
CRM TIZIMINING NAZARIY-ASOSIY TAMOIYILLARI VA ULGURJI SAVDODA ROLI	536
Islomov Shuhrat Marufjonovich	
Raimova Diyora Botirovna	
INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE TRANSFORMATIONAL MODEL OF THE DIGITAL ECONOMY UNDER GLOBALIZATION	541
Abruyeva Xilola Sherbekovna	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA RAHBAR KADRLAR TAYYORLASHDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI	551
Xurshida Maxmadaminova	
EKOLOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI BIOIQTISODIYOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	556
Odiljonov Turoopjon Erkinjon o'g'li	
AGRAR SEKTORDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI SAMARADORLIGIGA HUDUDIY OPTIMALLASHTIRISH YONDASHUVI	560
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
TABIIY MONOPOL KORXONALARNI BOSHQARISHNING INNOVATION TASHKILIYIQTISODIY MODELINI ISHLAB CHIQUISH	568
Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH VA IQTISODIY TAHLIL QILISH	575
Shoraximov Shomansur Shomaxmudovich	
KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI	582
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORPORATIV KREDITLASHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	590
Yuzbayeva Shaxsanam Ma'rufovna	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KUTUBXONA TIZIMIDA PLATFORMA JORIY ETISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI	595
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
HUDUDLARDA SOLIQ XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ARIMA MODEL ASOSIDAGI PROGNOZ SSENARIYLARI	602
Mamatramov Uchqun Xushmamatovich	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA INNOVATION YANGILIKLARNI QO'LLASH	607
Umaraliyeva Nasiba	



O'ZBEKISTONDAGI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING AHAMIYATI.....	610
Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li	
TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERNING AHAMIYATI VA MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	616
Latipov Xursandbek Durdiboy o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR	622
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	627
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
INNOVATSION MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	631
D. M. Kallibekov	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK MODEL VA ISTIQBOL PROGNOZI («NKMK» AJ MISOLIDA).....	635
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK MODEL VA ISTIQBOL PROGNOZI («NKMK» AJ MISOLIDA)

Jumaniyazova Feruza Rajabovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, PhD., dotsent
E-mail: feruza042820@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1838-3746

Annotatsiya: Maqolada aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli ishlab chiqilgan. Model operatsion pul oqimi, kapital qo'yilmalar, dividend to'lovlari, qarz kapitali va erkin pul oqimini yagona rekursiv tenglamalar tizimida bog'laydi hamda qarz kapitalini balanslovchi element sifatida talqin qiladi. Model «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2023–2025-yillardagi xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha ma'lumotlari asosida parametrlashtirilib, uning yordamida 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari shakllantirilgan. Prognoz natijalariga ko'ra, jamiyatning operatsion pul oqimi 2030-yilga borib 6,4 mlrd AQSh dollariga yetadi, kapital qo'yilmalar 4,1 mlrd dollargacha oshadi, sof qarzning EBITDAga nisbati esa 0,35 martadan 0,02 martagacha pasayadi. Bu investitsiya dasturining asosan ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilishini va sezilarli qarz sig'imi zaxirasi shakllanishini bildiradi.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihasi, moliyalashtirish samaradorligi, ekonometrik model, operatsion pul oqimi, erkin pul oqimi, kapital qo'yilmalar, dividend siyosati, qarz sig'imi, moliyaviy leveraj, strategik moliyaviy rejalashtirish.

Abstract: The article develops an econometric model of the relationships among the factors affecting the efficiency of investment project financing by joint-stock companies. The model links operating cash flow, capital expenditure, dividend payments, debt capital, and free cash flow within a single recursive system of equations, treating debt capital as the balancing item. The model is parameterised using the IFRS data of Navoi Mining and Metallurgical Combinat JSC for 2023-2025 and applied to generate forecast indicators up to 2030. According to the forecast, the company's operating cash flow reaches USD 6.4 billion by 2030, capital expenditure rises to USD 4.1 billion, while the net debt to EBITDA ratio falls from 0.35 to 0.02. This implies that the investment programme is financed mainly from internal sources and that a substantial reserve of debt capacity is formed.

Keywords: investment project, financing efficiency, econometric model, operating cash flow, free cash flow, capital expenditure, dividend policy, debt capacity, financial leverage, strategic financial planning.

Аннотация: В статье разработана эконометрическая модель взаимосвязей между факторами, влияющими на эффективность финансирования инвестиционных проектов акционерными обществами. Модель объединяет операционный денежный поток, капитальные вложения, дивидендные выплаты, заёмный капитал и свободный денежный поток в единую рекурсивную систему уравнений, рассматривая заёмный капитал как балансирующий элемент. Модель параметризована на данных АО «Навоийский горно-металлургический комбинат» по МСФО за 2023–2025 годы и использована для формирования прогнозных показателей до 2030 года. Согласно прогнозу, операционный денежный поток компании к 2030 году достигает 6,4 млрд долларов США, капитальные вложения возрастают до 4,1 млрд долларов, а отношение чистого долга к EBITDA снижается с 0,35 до 0,02. Это означает, что инвестиционная программа финансируется преимущественно за счёт внутренних источников и формируется значительный резерв долговой ёмкости.

Ключевые слова: инвестиционный проект, эффективность финансирования, эконометрическая модель, операционный денежный поток, свободный денежный поток, капитальные вложения, дивидендная политика, долговая ёмкость, финансовый левиредж, стратегическое финансовое планирование.



KIRISH

Yirik aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish qarorlari alohida loyiha darajasida emas, balki jamiyatning yaxlit moliyaviy oqimlari tizimi darajasida qabul qilinadi. Kapital qo'yilmalar hajmi, dividend siyosati va qarz kapitalining darajasi bir-biri bilan bog'langan bo'lib, ularning har biri operatsion pul oqimining chegaralangan miqdoriga da'vogarlik qiladi. Shu bois investitsiya dasturini moliyalashtirish samaradorligini baholash uchun ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni rasmiylashtiruvchi model zarur.

Amaliyotda esa ko'pgina jamiyatlarda investitsiya dasturi, dividend siyosati va qarz siyosati alohida-alohida shakllantiriladi. Natijada investitsiya dasturi tasdiqlanganidan keyin uni moliyalashtirish manbai izlanadi, dividend miqdori esa qoldiq tamoyili bo'yicha aniqlanadi. Bunday yondashuv qarz yukining prognoz qilinmagan tarzda oshishiga yoki, aksincha, foydalanilmagan qarz sig'imining hosil bo'lishiga olib keladi.

Tadqiqotning maqsadi — aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish va uni «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ («NKMK» AJ) misolida qo'llagan holda 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida «NKMK» AJning tanlanishi uning yirik investitsiya dasturiga egaligi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha auditdan o'tgan hisobotlarni muntazam e'lon qilishi va xalqaro kapital bozorida faol ishtirok etishi bilan izohlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ moliyaviy oqimlarni yagona tizim sifatida modellashtirish an'anasi S. Mayers va R. Brili asarlarida shakllangan: mualliflar investitsiya, moliyalashtirish va dividend qarorlarining o'zaro bog'liqligini korxona moliyaviy siyosatining uch tarkibiy qismi sifatida talqin qiladilar [1]. J. Linter dividend siyosatining maqsadli to'lov koeffitsiyentiga asoslangan moslashuvchan modelini taklif etgan [2], M. Jensen esa erkin pul oqimi konsepsiyasini ilgari surib, ortiqcha pul oqimining samarasiz loyihalarga yo'naltirilishi xavfini ko'rsatgan [3].

Moliyaviy cheklovlar bilan investitsiya faolligi o'rtasidagi bog'liqlik S. Fazzari, R. Xabbard va B. Petersenlarning klassik tadqiqotida empirik isbotlangan: moliyaviy jihatdan cheklangan korxonalarda investitsiyalarning ichki pul oqimiga sezgirligi yuqori bo'ladi [4]. S. Kaplan va L. Zingales ushbu natijaning talqinini takomillashtirib, sezgirlik darajasi cheklanganlikning monoton o'lchovi bo'la olmasligini ko'rsatganlar [5]. J. Grem va K. Xarvi korxona moliyaviy direktorlari o'rtasida o'tkazgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, amaliyotda moliyalashtirish qarorlarida maqsadli qarz darajasi va moliyaviy moslashuvchanlikni saqlash mezonlari ustunlik qiladi [6].

Prognozlashtirish uslubiyoiti nuqtai nazaridan A. Damodaranning erkin pul oqimi asosidagi baholash va prognozlashtirish modellari [7], shuningdek, tog'-kon sanoati korxonalari uchun ishlab chiqarish hajmi va xomashyo narxining ekzogen omil sifatida qaralishi bo'yicha yondashuvlar keng qo'llaniladi. Vaqtli qatorlarni prognozlashtirishda G. Boks va G. Jenkins metodologiyasi [8], moliyaviy koeffitsiyentlar barqarorligini baholashda esa panel ma'lumotlari tahlili usullari [9] asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy adabiyotlarda korporativ moliya va kapital bozori masalalari o'rganilgan bo'lsa-da [10], yirik aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya dasturini moliyalashtirish oqimlarini yagona rekursiv modelda birlashtiruvchi va uzoq muddatli prognoz beruvchi tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Mazkur maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taklif etilayotgan model rekursiv tenglamalar tizimidan iborat bo'lib, unda ekzogen omillardan boshlanuvchi ketma-ketlik operatsion pul oqimi orqali uning taqsimlanishiga va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga olib keladi. Model tenglamalari quyidagicha:

$$\begin{aligned}R_t &= P_t \times Q_t; & E_t &= m \times R_t; & OCF_t &= k \times E_t; \\CAPEX_t &= \alpha_t \times E_t; & DIV_t &= \delta \times NP_t; & FCF_t &= OCF_t - CAPEX_t; \\ND_t &= ND_{t-1} - OCF_t + CAPEX_t + DIV_t; & L_t &= ND_t / E_t\end{aligned}$$

bu yerda: R — tushum; P — oltinning o'rtacha realizatsiya narxi; Q — ishlab chiqarish hajmi; E — tuzatilgan EBITDA; m — EBITDA rentabelligi; OCF — operatsion pul oqimi; k — operatsion pul oqimining EBITDAga konversiya koeffitsiyenti; $CAPEX$ — kapital qo'yilmalar; α — investitsiya intensivligi koeffitsiyenti; NP — sof foyda; δ — dividend to'lov koeffitsiyenti; FCF — erkin pul oqimi; ND — sof qarz; L — moliyaviy leveraj.




Modelning uslubi o'ziga xosligi shundaki, unda qarz kapitali mustaqil ravishda belgilanmaydi, balki operatsion pul oqimi, kapital qo'yilmalar va dividend to'lovlari o'rtasidagi farqni qoplovchi balanslovchi element sifatida endogen aniqlanadi. Bu yondashuv investitsiya dasturi, dividend siyosati va qarz siyosatini yagona byudjet cheklovi doirasida muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Model parametrlari «NKMK» AJning 2023–2025-yillardagi xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha auditdan o'tgan hisobotlari asosida baholandi: EBITDA rentabelligi $m = 0,63$; konversiya koeffitsiyenti $k = 0,70$; sof foyda koeffitsiyenti $NP/E = 0,50$; dividend to'lov koeffitsiyenti $\delta = 0,50$. Investitsiya intensivligi koeffitsiyenti α jamiyatning ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish dasturini hisobga olgan holda 0,32 dan 0,45 gacha bosqichma-bosqich oshirildi. Ekzogen omillar bo'yicha bazaviy ssenariy qabul qilindi: ishlab chiqarish hajmining yillik o'sishi 2,0 foizdan 4,0 foizgacha, oltin narxining yillik o'sishi 3,0 foiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilgan modelning tarkibiy tuzilishi 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligi modelining blok-sxemasi¹

Model parametrlarini baholash uchun foydalanilgan bazaviy ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.
«NKMK» AJ ning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari, 2023-2025-yillar²

Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Oltin ishlab chiqarish, mln troya unsiyasi	2,94	3,10	3,156
Tushum, mln AQSh dollari	5 700	7 400	10 800
Tuzatilgan EBITDA, mln AQSh dollari	3 300	4 600	6 950
EBITDA rentabelligi, %	58,0	62,0	64,2
Sof foyda, mln AQSh dollari	1 480	2 140	3 500
Kapital qo'yilmalar, mln AQSh dollari	679	914	—
Sof qarzning EBITDAGA nisbati, marta	0,70	0,50	0,35*

1-jadval ma'lumotlari model parametrlarining barqarorligini tasdiqlaydi: EBITDA rentabelligi 58,0 dan 64,2 foizgacha oshgan, investitsiya intensivligi koeffitsiyenti (CAPEX/EBITDA) esa 2023-yilda 0,206, 2024-yilda 0,199 ni tashkil etgan, ya'ni deyarli o'zgarmagan. Sof qarzning EBITDAGA nisbati izchil pasaygan, bu jamiyatning investitsiya dasturini ko'proq ichki manbalar hisobidan moliyalashtirayotganini ko'rsatadi.

Model asosida shakllantirilgan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari 2-jadvalda va 2-rasmda keltirilgan (2-jadval; 2-rasm).


1 Manba: muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallif ishlanmasi.

2-iadval.

«NKMK» AJ investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari, mln AQSh dollari³

Ko'rsatkich	2026	2027	2028	2029	2030
Tushum	11 346	11 979	12 708	13 548	14 512
Tuzatilgan EBITDA	7 148	7 547	8 006	8 535	9 143
Operatsion pul oqimi (OCF)	5 004	5 283	5 604	5 975	6 400
Kapital qo'yilmalar (CAPEX)	2 287	2 717	3 203	3 670	4 114
Erkin pul oqimi (FCF)	2 716	2 566	2 402	2 304	2 286
Sof foyda	3 574	3 773	4 003	4 268	4 571
Dividend to'lovlari	1 787	1 887	2 002	2 134	2 286
Sof qarz	1 471	792	391	221	221
Sof qarz / EBITDA, marta	0,21	0,10	0,05	0,03	0,02



2-rasm. Tushum va EBITDA dinamikasi hamda operatsion pul oqimining taqsimlanishi⁴

Prognoz natijalari bir necha muhim xulosalarni ilgari surish imkonini beradi. Birinchidan, jamiyatning operatsion pul oqimi 2026-yildagi 5 004 mln dollardan 2030-yilda 6 400 mln dollargacha, ya'ni 27,9 foizga oshadi. Bu o'sish tushum va EBITDA rentabelligining barqarorligi hisobiga ta'minlanadi va investitsiya dasturini moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, kapital qo'yilmalar 2 287 mln dollardan 4 114 mln dollargacha, ya'ni 1,8 barobar oshadi. Ularning EBITDAdagi ulushi 32 foizdan 45 foizgacha ko'tariladi. Shu sababli erkin pul oqimi mutlaq miqdorda barqaror bo'lgani holda (2 286–2 716 mln dollar) bosqichma-bosqich qisqaradi — bu investitsiya dasturining jadallashuvi natijasidir.

Uchinchidan, model natijalariga ko'ra sof qarz 2026-yildagi 1 471 mln dollardan 2030-yilda 221 mln dollargacha kamayadi, sof qarzning EBITDaga nisbati esa 0,21 martadan 0,02 martagacha pasayadi. Ya'ni, bazaviy ssenariyda jamiyat kengaytirilgan investitsiya dasturini to'liq ichki manbalar hisobidan moliyalashtira oladi va bir vaqtning o'zida qarz yukini kamaytiradi.

Ushbu natija amaliy jihatdan ikki xil talqinga ega. Bir tomondan, u moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishini bildiradi. Ikkinchi tomondan esa foydalanilmayotgan qarz sig'iminin shakllanishini

3 Manba: muallif ishlanmasi.

4 Manba: muallif ishlanmasi.



ko'rsatadi: agar maqbul leveraj darajasi 0,5 marta deb qabul qilinsa, 2030-yilda jamiyatning qo'shimcha qarz jalb qilish imkoniyati taxminan 4,3 mlrd dollarni tashkil etadi. Ushbu zaxira qo'shimcha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yoki dividend to'lovlarini oshirish uchun strategik resurs sifatida qaralishi mumkin. Aynan shu bog'liqlikning oldindan aniqlanishi investitsiya dasturini moliyalashtirish qarorlarini strategik moliyaviy rejalashtirish bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Modelning sezgirligi ekzogen omillarga bog'liq: hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, oltin narxining bazaviy ssenariyga nisbatan 10 foizga pasayishi 2030-yildagi operatsion pul oqimini taxminan 640 mln dollarga kamaytiradi va sof qarzning EBITDAga nisbatini 0,3 marta atrofiga ko'taradi. Shu bois modeldan foydalanishda ssenariy tahlilini muntazam yangilab borish talab etiladi. Tadqiqotning asosiy cheklovi — parametrlarning uch yillik qatarga asoslanganligi bo'lib, uzunroq vaqtli qator mavjud bo'lganda koeffitsiyentlarni regressiya usulida baholash aniqlikni oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni operatsion pul oqimi, kapital qo'yilmalar, dividend to'lovlari, qarz kapitali va erkin pul oqimini birlashtiruvchi rekursiv tenglamalar tizimi sifatida modellashtirish mumkin. Modelda qarz kapitalining balanslovchi element sifatida endogen aniqlanishi investitsiya, dividend va qarz siyosatlarini yagona byudjet cheklovi doirasida muvofiqlashtirish imkonini beradi.

2. Model «NKMK» AJning 2023–2025-yillardagi ma'lumotlari asosida parametrlashtirildi. Baholangan koeffitsiyentlar barqarorligi yuqori: EBITDA rentabelligi 58–64 foiz, investitsiya intensivligi koeffitsiyenti 0,20 atrofida shakllangan.

3. 2030-yilgacha bo'lgan prognozga ko'ra, operatsion pul oqimi 6 400 mln dollarga, kapital qo'yilmalar 4 114 mln dollarga yetadi, erkin pul oqimi 2 286 mln dollar darajasida barqarorlashadi, sof qarzning EBITDAga nisbati esa 0,02 martagacha pasayadi.

4. Prognoz natijasi jamiyatda sezilarli qarz sig'imi zaxirasi shakllanishini ko'rsatadi — maqbul leveraj 0,5 marta deb olinganda, 2030-yilda qo'shimcha qarz jalb qilish imkoniyati 4,3 mlrd dollarga yetadi. Ushbu zaxiradan foydalanish yo'nalishlarini oldindan belgilash strategik moliyaviy rejalashtirishning muhim vazifasi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya dasturi, dividend siyosati va qarz siyosatini yagona uzoq muddatli moliyaviy modelda birlashtiruvchi hujjatni kuzatuv kengashi darajasida tasdiqlash; ikkinchidan, maqsadli leveraj koridorini (masalan, sof qarz/EBITDA 0,3–0,7 marta) belgilash va undan chetlanish hollarida majburiy tahliliy asoslash tartibini joriy etish; uchinchidan, ekzogen omillar bo'yicha kamida uchta ssenariy (bazaviy, optimistik, pessimistik) asosida yillik qayta hisob-kitob tartibini o'rnatish; to'rtinchidan, foydalanilmayotgan qarz sig'imi hajmini muntazam baholab borish va uni yangi investitsiya loyihaları portfelinı shakllantirishda hisobga olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. — 13th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2020. — 1024 p.
2. Lintner J. Distribution of Incomes of Corporations Among Dividends, Retained Earnings, and Taxes // The American Economic Review. — 1956. — Vol. 46, No. 2. — P. 97–113.
3. Jensen M.C. Agency Costs of Free Cash Flow, Corporate Finance, and Takeovers // The American Economic Review. — 1986. — Vol. 76, No. 2. — P. 323–329.
4. Fazzari S.M., Hubbard R.G., Petersen B.C. Financing Constraints and Corporate Investment // Brookings Papers on Economic Activity. — 1988. — No. 1. — P. 141–206.
5. Kaplan S.N., Zingales L. Do Investment-Cash Flow Sensitivities Provide Useful Measures of Financing Constraints? // The Quarterly Journal of Economics. — 1997. — Vol. 112, No. 1. — P. 169–215.
6. Graham J.R., Harvey C.R. The Theory and Practice of Corporate Finance: Evidence from the Field // Journal of Financial Economics. — 2001. — Vol. 60, No. 2–3. — P. 187–243.
7. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. — 3rd ed. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2012. — 992 p.
8. Box G.E.P., Jenkins G.M., Reinsel G.C., Ljung G.M. Time Series Analysis: Forecasting and Control. — 5th ed. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2015. — 712 p.
9. Wooldridge J.M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. — 2nd ed. — Cambridge, MA: MIT Press, 2010. — 1064 p.



10. Elmirzayev S., Berdiyev O'., Bo'riyev J. Milliy korporativ obligatsiyalar bozori: joriy holat va istiqbollar. — Toshkent, 2021.
11. O'zbekiston Respublikasining 06.05.2014-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-2382409>
12. «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha moliyaviy hisobotlar (2023–2025-yillar). — URL: <https://www.ngmk.uz>
13. Yagona korporativ axborot portali. Emitentlarning yillik hisobotlari. — URL: <https://openinfo.uz>
14. London Bullion Market Association. Precious Metal Prices (2023–2025). — URL: <https://www.lbma.org.uk>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>